

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

AVGUST, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-259-6

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Фозилжонов Хожиақбар

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ
CBT 7-11

Mamadaliyeva Gulhayo

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI
UNING ISH KO'RSATGICHLARIGA TA'SIRI 12-16

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV 17-19

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI
QIYOSIY FARQLAR 20-23

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI 24-25

Xasanova Nargiza

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA 26-29

Rustamova Nigora

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI 30-32

Xalilov Baxodir

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"
TASHKILOTI FAOLİYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida) 33-37

Норов Шухрат

УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои) 38-41

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda) 42-43

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH
METODIKASI 44-47

Abduraimova Nigora

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI 48-51

Sidiqov Jasurbek

IJTIMOY INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR 52-56

Nematova Dilnoza

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 57-63

Axmedova O'g'ilshod

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI 64-66

<i>Abduraimova Nigora</i> TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR	67-70
<i>Tuychiyev Anvarjon</i> MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	71-75
<i>Asqarov Abrorjon</i> TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI	76-85
<i>Yusufjonov Ravshanbek</i> INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	86-88
FALSAFA FANLARI	
<i>Gafurova Munajat</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI.....	89-92
<i>Abdullayev Sodiqjon</i> ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI	93-98
FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yusufova Farangiz</i> HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN.....	99-102
<i>Xoliyorova To'lg'anoy</i> O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	103-104
<i>Ro'ziyev Temur</i> IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI	105-112
<i>Eshchanova Mavjuda</i> CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES.....	113-115
<i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuza</i> ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida).....	116-119
<i>Bahromjonova Shahnoza</i> "MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI	120-122
<i>Maxmudova Marjona</i> "DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI.....	123-124
<i>Gulmuradova Sobira</i> TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIKMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR.....	125-127
<i>Qurbonova Aziza</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARNING AHAMIYATI	128-129
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS: A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY.....	130-136

<i>Qosimova Malika</i> LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH METODLARI	137-140
<i>Ayimbetova Damekhan</i> ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA OBRAZLAR TIZIMI	141-145
<i>Yo'ldasheva Mahliyo</i> "MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	146-149
<i>YURIDIK FANLARI</i>	
<i>G'ofurov Ramzbek</i> DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI	150-154
<i>Turdibaeva Mukhaddas</i> JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES	155-160
<i>Gafurova Shoir</i> ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI	161-165
<i>Komilov Avazbek</i> PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RSIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR	166-169
<i>Babajanov Farrux</i> IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS ETTIRISH	170-175
<i>PEDAGOGIKA FANLARI</i>	
<i>Нуриллаева Угулхон</i> ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ	176-181
<i>Tursinova Zoxida</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI	182-191
<i>Babayeva Shahnoza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI	192-194
<i>Rasulova Barnoxon</i> KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV INNOVATSION BAHOLASH USULLARI	195-199
<i>Zokirjonov Akramjon</i> O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI	200-202
<i>Baratova Yulduz</i> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI	203-206

Sattoriy Shohruh

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI207-210

TIBBIYOT FANLARI

Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza

AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN.....211-213

Мамадалиев Хасанхон

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)

И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-

МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ.....214-218

Maxmudbekov Boburmirzo

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA

OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH.....219-221

PSIXOLOGIYA FANLARI

Усманова Лилия

ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ

ТРАДИЦИИ222-225

SIYOSIY FANLAR

Sa'diyev Bahodir

ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI.....226-231

IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS ETTIRISH

Babajanov Farrux Qadamboyevich

O'zbekiston Respublikasi Sud'yalar Oliy kengashi huzuridagi

Sud'yalar Oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi

E-mail: farruh-babajanov@mail.ru

Tel: +998 97 512 18 78

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-6265-3864>

Tashkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tezisda iqtisodiy protsessual huquq prinsiplarining sud xarajatlari institutida aks etishini tizimli yondashuv asosida o'rganadi. Iqtisodiy protsessda sud xarajatlari instituti nafaqat moddiy xarajatlarni qoplash, balki jarayonning adolatli, qonuniy va samarali yuritilishini ta'minlashda muhim funksiyalarni bajaradi. Ishda iqtisodiy protsessual huquqning asosiy prinsiplaridan — qonuniylik, tortishuvchilik, teng huquqlilik va odil sudlov tamoyillarining sud xarajatlari institutida qanday ifodalanganligi batafsil tahlil qilinadi. Tortishuvchilik prinsipi, xususan, sud xarajatlarini taqsimlash jarayonida ishtirokchilarning dalillarini taqdim etishi va ularni isbotlash majburiyatlarini belgilaydi. Shu bilan birga, sud xarajatlarini qoplash tartibi iqtisodiy sudlarda ishlarni tez va samarali ko'rib chiqishga yordam beradi, sud tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Mualliflar sud xarajatlari institutining normativ-huquqiy asoslarini mustahkamlash va iqtisodiy protsessual huquq prinsiplariga muvofiq takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi, chunki bu ish yuritish sifatini oshirish va odil sudlovni ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Umuman olganda, ish iqtisodiy sudlarda sud xarajatlari institutining sud jarayonlarida o'rni va roli, shuningdek, uning huquqiy tartibga solinishi masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy protsessual huquq, sud xarajatlari instituti, prinsiplar, tortishuvchilik, qonuniylik, teng huquqlilik, sud xarajatlarini taqsimlash, sud ishlari yuritilishi, sud qarorlari.

REFLECTION OF THE PRINCIPLES OF ECONOMIC PROCEDURAL LAW IN THE INSTITUTE OF COURT COSTS

Babajanov Farrux

Independent researcher at the Supreme School of Judges

with the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan

Annotation. In this thesis, based on a systematic approach, the reflection of the principles of economic procedural law in the institution of court costs is studied. In economic proceedings, the institution of court costs performs important functions not only in covering material costs, but also in ensuring the fair, lawful, and effective conduct of the process. The work analyzes in detail how the basic principles of economic procedural law - the principles of legality, adversarial nature, equality, and fair trial - are expressed in the institution of court costs. The adversarial principle, in particular, establishes the obligations of participants to present evidence and prove it in the process of distributing court costs. At the same time, the procedure for reimbursement of court costs contributes to the prompt and effective consideration of cases in economic courts, ensuring the financial stability of the judicial system. The authors emphasize the need to strengthen the regulatory framework of the institution of court costs and improve it in accordance with the principles of economic procedural law, since this is a decisive factor in improving the quality of proceedings and ensuring justice. In general, the work is devoted to the issues of the place and role of the institution of court costs in economic courts in judicial proceedings, as well as its legal regulation.

Key words: Economic procedural law, the institution of court costs, principles, adversarial nature, legality, equality, distribution of court costs, legal proceedings, court decisions.

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-39>

Zamonaviy ilm-fan yondashuvlaridan biri bu – tizimli tahlildir. Ushbu yondashuv yordamida jarayon va hodisalarning mohiyatini chuqur anglash mumkin bo'ladi. Ayniqsa, iqtisodiy protsessual huquq sohasida bu uslub sud xarajatlari institutini boshqa dolzarb muammolar bilan bog'liq holda chuqur va har tomonlama o'rganishga xizmat qiladi.

Prinsip (tamoyil, negiz, asos) – bu xatti-harakat yoki baholash uchun qo'llanma bo'lgan taklif yoki qiymat. Qonunda bu amal qilinishi shart yoki odatda amal qilinadigan qoida hisoblanadi [7]. Prinsip so'zining asl ma'nosi "bosh g'oya", "rahbariy asos", "yo'nalish", "tayanch", "qoida" kabi juda ko'p ma'nolarni anglatadi [1; B.34.].

Prinsiplar nafaqat jismoniy va yuridik shaxslar, balki sudlar, shuningdek, boshqa davlat organlari tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan qat'iy va shartsiz imperativ xarakterga ega.

Iqtisodiy protsessual huquq prinsiplari iqtisodiy protsessual qonunchilikka chuqur singdirilgan asosiy yo'naltiruvchi qoidalar bo'lib, ular odil sudlovni yuqori darajada va tizimli tarzda amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu prinsiplar iqtisodiy protsess ishtirokchilarining xatti-harakatlarini tartibli va maqsadga yo'naltirilgan shaklda boshqaradi, ish yuzasidan obyektiv haqiqatni aniqlash hamda qonuniy, adolatli va asoslangan qarorlar qabul qilinishini ta'minlashga qaratilgan.

Huquqiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, iqtisodiy protsessual huquq prinsiplari barcha protsessual institutlar tizimiga daxldor bo'lib, ularning mazmun-mohiyatini ochib beradigan, mavjud tartiblarni belgilovchi umumiy normativ-rahbariy qoidalar sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy protsessual huquq prinsiplari – bu qonunchilikda belgilab qo'yilgan va barcha protsessual institutlar faoliyati uchun asosiy yo'naltiruvchi mezon sifatida xizmat qiladigan qoidalardir. Ular iqtisodiy nizolarni to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqish, shuningdek, adolatli sudlovni ta'minlashda muhim funksiyani bajaradi.

Iqtisodiy protsessual huquqning har qanday prinsipini mustaqil holda ko'rib chiqqanimizda ham, ularning real ahamiyati aynan boshqa prinsiplar bilan bo'lgan o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Mazkur prinsiplar iqtisodiy protsessning barcha bosqichlari va institutsional tuzilmalariga kompleks tarzda ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularning amaliy ahamiyatini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Sud xarajatlari institutiga nisbatan huquqiy prinsiplar — bu institutning profilaktik, rag'batlantiruvchi, ta'minlovchi, jazolovchi, tarbiyaviy hamda protsessual funksiyalarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi, sud organlari va iqtisodiy jarayonning boshqa ishtirokchilariga qaratilgan, huquqiy normalar asosida belgilab qo'yilgan asosiy tamoyillar sifatida e'tirof etiladi.

Iqtisodiy ishlarni ko'rib chiqish va ularni hal etish jarayonida iqtisodiy sudlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning adolatga muvofiqlik darajasi, avvalo, amaldagi iqtisodiy protsessual huquq prinsiplari qay darajada rioya etilganligiga bevosita bog'liq hisoblanadi.

Iqtisodiy sudlarda ish yuritish natijasida ma'lum miqdorda sud xarajatlari vujudga keladi. Ushbu xarajatlarni qoplash masalasi, qonuniylik tamoyilining ta'minlanishi doirasida, odatda aybdor deb topilgan yoki asossiz da'vo kiritgan shaxs zimmasiga yuklatiladi. Mazkur holat sud xarajatlari institutining mohiyatida yaqqol ifodasini topadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 118-moddasi[6]da belgilanishicha, sud xarajatlari, odatda, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning qanoatlantirilgan

da'vo talablari miqdoriga mutanosib ravishda taraflar o'rtasida taqsimlanadi. Ya'ni, da'vosi to'liq yoki qisman qanoatlantirilgan tomon o'zining huquqiy pozitsiyasini isbotlagan hisoblanadi va sud xarajatlarining og'irligi, asosan, e'tirozi rad etilgan tomonga yuklatiladi. Mazkur yondashuv, iqtisodiy protsessual huquqning adolat, qonuniylik va teng huquqlilik kabi asosiy prinsiplariga asoslanadi.

Shuningdek, agar taraflar sud xarajatlarini taqsimlash tartibi bo'yicha o'zaro kelishuvga erishgan bo'lsa, sud bu kelishuvni inobatga olib, hal qiluv qarorini shu asosda qabul qiladi. Bu esa protsessual dispozitivlik prinsipining amaliy ifodasidir, ya'ni taraflarning huquqiy munosabatlarga nisbatan o'z xohishiga ko'ra harakat qilish erkinligini e'tirof etadi.

Bundan tashqari, Kodeksda iqtisodiy sudlar tomonidan chiqarilayotgan qarorlar adolat, qonuniylik va asoslanganlik mezonlariga javob berishi lozimligi qat'iy ko'rsatilgan. Sud xarajatlarini taqsimlashda aynan mana shu prinsiplarga qat'iy rioya qilinishi iqtisodiy protsessning konstitutsiyaviy mohiyatiga mos kelishini ta'minlaydi.

Yuridik adabiyotlarda iqtisodiy protsessual huquq prinsiplari tasnifi yuzasidan turli qarashlar ilgari surilgan. Xususan, yurtimizdagi taniqli huquqshunos olimlardan Sh.Sh. Shoraxmetov iqtisodiy protsessual huquqning asosiy prinsiplarini ikki asosiy toifaga ajratishni taklif etadi. Birinchi guruh sud tizimining tuzilishi va uning faoliyat yuritishiga daxldor umumiy prinsiplarni o'z ichiga olsa, ikkinchi guruh bevosita iqtisodiy ishlarni yuritish tartibiga xos bo'lgan maxsus protsessual prinsiplarni qamrab oladi.

Bunday tasnif huquqiy prinsiplarning qamrov doirasi va amaliyotdagi ahamiyatini aniqlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi, chunki u har bir prinsipning sud tizimidagi rolini aniqlashtirishga imkon beradi. Shuningdek, bu yondashuv prinsiplar tizimini tartibga solishda tizimli yondashuvning ahamiyatini namoyon etadi.

Shuningdek, yuridik adabiyotlarda iqtisodiy protsessual huquq prinsiplari tasnifining boshqa yondashuvlari ham mavjud. Masalan, huquqshunos olima F. Ibratova iqtisodiy protsessual huquqning prinsiplarini ikki toifaga ajratadi: birinchisi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z aksini topgan konstitutsiyaviy prinsiplar; ikkinchisi esa to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy protsessual qonunchilikda mustahkamlangan maxsus prinsiplar hisoblanadi.

Bu yondashuv prinsiplarning ijtimoiy va huquqiy manbalariga asoslangan holda tasniflanishini ko'zda tutadi. Konstitutsiyaviy prinsiplar – fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan huquqlarini kafolatlovchi asosiy qoidalar bo'lsa, iqtisodiy protsessual prinsiplar esa bevosita sud ishlarini yuritish tartibini huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan.

Bunday tasnif prinsiplarga oid nazariy qarashlarni chuqurlashtirish, ularning manba va funksional yo'nalishlarini aniqlashtirish, shuningdek, ularni amaliyotda qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish imkonini beradi.

Tortishuvchilik prinsipi iqtisodiy sud yurituvda hal qilinayotgan masalaga oid huquqiy va faktik holatlarni aniqlash uchun zarur huquqiy muhitni ta'minlab, sud tomonidan qonuniy, asoslantirilgan va adolatli qaror qabul qilinishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy protsessda tortishuvchilik prinsipi da'vogar va javobgar o'rtasida yuzaga keladigan huquqiy bahslar jarayonini tashkil etuvchi asosiy tamoyillardan biridir. Bu prinsip asosida taraflar o'z da'volari va e'tirozlarini isbotlash maqsadida dalillar taqdim etadilar, tushuntirishlar beradilar hamda huquqiy pozitsiyalarini himoya qiladilar. Shunday tartib,

sudga mavjud nizoni to'laqonli ko'rib chiqish, har ikki tarafning nuqtai nazarini baholash va shu asosda obyektiv haqiqatga yaqin bo'lgan qaror qabul qilish imkonini beradi.

Mazkur prinsipga ko'ra, taraflar protsessda ilgari surgan faktlar va dalillar doirasini mustaqil belgilaydilar va har biri o'zining da'vo yoki e'tirozlariga asos bo'luvchi holatlarni isbotlash majburiyatini oladi. Shuningdek, sud esa faqat ushbu doirada mavjud dalillar asosida qaror qabul qiladi, bu esa sud faoliyatining xolisligini va qonuniyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tortishuvchilik prinsipining iqtisodiy sud ishlarida qo'llanilishi — faqatgina dalillar bilan ish yuritish tamoyilini emas, balki har bir tarafning protsessual huquqlari va majburiyatlariga rioya qilinishi orqali sud xarajatlarining taqsimlanishida ham muhim rol o'ynaydi.

Tortishuvchilik prinsipining sud xarajatlari institutiga bevosita ta'siri uning protsessual mohiyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki iqtisodiy sud ishlarida taraflar tomonidan taqdim etilgan dalillar va ularning isbotlashdagi faolligi nafaqat sud qarorining asoslanganligiga, balki xarajatlar qanday taqsimlanishiga ham bevosita ta'sir qiladi. Sud, odatda, ishni ko'rishda asosiy protsessual vazifalarni bajargan va huquqiy pozitsiyasini asosli dalillar bilan qo'llab-quvvatlagan tarafning manfaatlarini hisobga olib, sud xarajatlarini taqsimlaydi.

Bunda har bir tarafning tortishuvdagi roli, ularning o'z da'volari yoki e'tirozlarini qanday asoslaganligi, dalillarni to'g'ri va o'z vaqtida taqdim etganlik darajasi alohida ahamiyat kasb etadi. Agar bir taraf o'z talabini isbotlashda sustkashlik qilgan yoki asossiz da'vo bilan chiqish qilgan bo'lsa, sud xarajatlari aynan ushbu taraf zimmasiga yuklatilishi mumkin. Shu jihatdan olganda, tortishuvchilik prinsipi iqtisodiy protsessda moliyaviy intizom va ehtiyotkorlikni rag'batlantiruvchi vosita sifatida ham namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, bu prinsip taraflarning protsessual tengligini ta'minlash bilan ham bog'liqdir. Har bir ishtirokchi o'zining pozitsiyasini himoya qilish huquqiga ega bo'lishi bilan birga, unga tegishli majburiyatlarni ham bajarmog'i lozim. Aynan shunday yondashuv orqali sudga murojaat qilgan har bir fuqaro yoki yuridik shaxs o'z huquqini adolatli himoya qildirishga erishadi va jarayonning o'ziga xos tartibi saqlanadi.

Sud xarajatlarini taqsimlash jarayoni ham tortishuvchilik prinsipi doirasida qaraladi. Taraflar sud xarajatlari summasining asoslanganligini, uning oqilona yoki ortiqcha ekanligini isbotlashi talab etiladi. Shunday qilib, prinsip faqat ish yuritishdagi protsessual faoliyatni emas, balki ish yakunidagi moliyaviy masalalarning hal etilishida ham muhim o'rin egallaydi.

Iqtisodiy sudlarda sud xarajatlari institutining sud ishlarini yuritishdagi funksional ahamiyatini belgilashda, mazkur institutning mohiyatini ochib beruvchi bir qator asosiy jihatlar tahlil qilinishi zarur.

Shaxsning sud orqali o'z huquq va erkinliklarini himoya qilishga doir konstitutsiyaviy huquqi faqatgina odil sudlovdan foydalanish imkoniyati real va amalda mavjud bo'lgan taqdirdagina to'liq ro'yobga chiqarilgan deb baholanishi mumkin.

Odil sudlovdan foydalanish huquqining ta'minlanishi murakkab va ko'p qirrali tusga ega bo'lib, u nafaqat sud tizimining tuzilmasi, balki moliyaviy resurslar, tashkiliy mexanizmlar hamda protsessual normalar bilan bevosita bog'liqdir.

Odil sudlovdan foydalanish imkoniyati deganda, iqtisodiy sud jarayonining ishtirokchilari uchun adolatli sud muhokamasida qatnashish huquqini ta'minlaydigan institutsional va protsessual kafolatlarning mavjudligi tushuniladi. Bunday kafolatlar tarkibiga sud organlarining yetarli soni, fuqarolarning sudga erkin murojaat qilishi imkoniyati, ishlarning oqilona muddatlarda ko'rib chiqilishi, davlat boji hamda boshqa sud xarajatlarining iqtisodiy asoslanganligi kabi omillar kiradi.

M.S. Shakaryan fikricha, "odil sudlovdan foydalanish imkoniyati sud tizimi va sud jarayonlarini tashkil etish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu imkoniyat bir qator shartlarning mavjudligi orqali belgilanadi. Jumladan, ularning orasida moddiy imkoniyati cheklangan shaxslarning sud xarajatlaridan ozod qilinishi mumkinligi ham muhim omil hisoblanadi" [4; B.61.].

V.V. Yarkovning fikricha, "sudga kirish imkoniyati bir qator omillar orqali belgilanadi va ularning har biri huquqiy himoyaning samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Birinchi navbatda, sud jarayonlarining davomiyligi sudga murojaat qiluvchi shaxslarning huquqini vaqtida himoya qilish imkoniyatini cheklashi mumkin. Uzoq davom etuvchi sud jarayonlari nafaqat taraflarning huquqiy manfaatlarini sustlashtiradi, balki sud tizimiga bo'lgan ishonchni kamaytiradi". [5; B.72.].

E.M. Muradyan fikricha, sud himoyasiga erishishdagi moliyaviy to'siqlar jamiyat va sud hokimiyatini bir-biridan ajratib qo'yadi, bu esa inson huquqlari va davlat manfaatlariga zid hisoblanadi. U odil sudlovdan foydalanish imkoniyatini yuqori davlat bojlari hamda sudning byurokratik to'siqlari bilan bevosita bog'laydi [3; B.650.].

Odil sudlovdan foydalanish imkoniyati, bir tomonlama, sudga murojaat qilgan shaxslarning yuzaga keladigan barcha xarajatlarni qoplash qobiliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, iqtisodiy jarayon tamoyillariga asoslangan holda va ma'lum muddatlarda samarali hamda sifatli huquqiy himoyani ta'minlaydigan odil sudlov zamonaviy sharoitlarda arzon bo'lishi amalda qiyin hisoblanadi [2].

Iqtisodiy sudga ariza, da'vo ariza yoki shikoyat bilan murojaat qilishda davlat bojini to'lash sud himoyasidan foydalanish huquqini amalga oshirishning majburiy sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, davlat bojining yetarli miqdorini ta'minlash, imtiyozlar berish, to'lovni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatlarini yaratish hamda to'langan davlat bojini qaytarish yoki hisobga olish tartiblarini ta'minlash kafolat sifatida qaraladi.

Sud xarajatlari institutining iqtisodiy sudlarda ish yuritish jarayonidagi o'rne va ahamiyatini tahlil qilganda, u iqtisodiy sud ishlarini yuritish vazifalarini bajarishda muhim huquqiy vosita sifatida xizmat qilishini ta'kidlash mumkin.

Sud xarajatlari instituti o'zining protsessual xususiyati bilan sud ishlarini yuritish jarayonini tartibga soluvchi normativ huquqiy me'yorlarni tashkil etadi. Shu bilan birga, uning murakkabligi va iqtisodiy sudlarda bajaradigan vazifalari uni kompleks huquqiy vosita sifatida ajratib turadi. Ushbu institutni chuqur tahlil qilish va yuridik amaliyotda samarali, sifatli qo'llash huquqiy tartibga solish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va sud-huquq tizimining ishonchliligini mustahkamlaydi.

Zamonaviy iqtisodiy protsessual huquqning asosiy prinsiplaridan har biri — qonuniylik, dispozitivlik, tortishuvlik, tenglik va sudning mustaqilligi — sud xarajatlari institutida o'z ifodasini topadi. Avvalo, sud xarajatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishda

aynan ushbu prinsiplar asos sifatida qabul qilinadi. Ikkinchidan, iqtisodiy protsessual huquq prinsiplarining taraqqiyoti sud xarajatlari institutining yanada takomillashuvi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Xususan, tortishuvlik prinsipining sud ishlarini yuritishdagi o'rni mustahkamlanishi, iqtisodiy jarayon ishtirokchilarining faolligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida ishlarni ko'rib chiqishda hamda sud xarajatlarini taqsimlashda sud xarajatlari institutini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslarning yanada takomillashishini taqozo etadi.

Iqtisodiy sudlarda sud ishlarini yuritish vazifalarini amalga oshirishda sud xarajatlari institutining roli shundaki, u mazkur vazifalarga erishishda muhim protsessual vosita sifatida xizmat qiladi. Sud xarajatlari instituti sud jarayonining samarali va tartibli yuritilishini ta'minlash, ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash hamda sudning adolatli va asosli qaror qabul qilishiga yordam beradi. Shu tariqa, sud xarajatlari instituti iqtisodiy sud ishlarini yuritish jarayonining uzviy qismi bo'lib, protsessual tartib-taomillarni to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

3. Fuqarolik protsessual huquqi Darslik. Z.N.Esanova – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022-y. – 328 bet.
4. Приходько И.А. Доступность правосудия в арбитражном и гражданском процессах: основные проблемы. СПб., 2005. 672 с.
5. Судебная власть / Под ред. И.Л. Петрухина. М., 2003. С. 720 с.
6. Шакарян М.С. Проблемы доступности и эффективности правосудия в судах общей юрисдикции // Проблемы доступности и эффективности правосудия в арбитражном и гражданском судопроизводстве / Под ред. Э.Н. Ренова, Д.Е. Тягай. М., 2001. С. 61.
7. Ярков В.В. Цели судопроизводства и доступ к правосудию // Проблемы доступности и эффективности правосудия в арбитражном и гражданском судопроизводстве. М., 2001. С. 72.
8. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий процессуал кодекси. (2024 йил 23 февралгача бўлган ўзгартириш ва қўшимчалар билан). Расмий нашр. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази. – Т.: 2024 й. – 496 б.
9. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Prinsip>

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 05-avgust

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.